

YOUTH AGGRESSION AND AGENCY PHENOMENON IN PSYCHOLOGY

Burteshova Aliya Burkxonovna
Chirchik State Pedagogical Institute, Uzbekistan.

ABSTRACT

This article describes the phenomenon of aggression and physiological changes in aggressive behavior, the onset of puberty and, in connection with this, the perfect development and growth of all organs in the body, the re-formation of cell and organism structures. Deviant behavior in adolescence, its psychological manifestations, formation, adolescents prone to this behavior, and ways to overcome deviant behavior are discussed.

Keywords: Aggression, phenomenon. adolescence, deviant, behavior, psychology, stagnation.

PSIXOLOGIYADA O'SMIRLAR AGRESSIVLIGI VA AGRESSIVLIK FENOMENI

Burteshova Aliya Burxonovna
Chirchiq Davlat Pedagogika Instituti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada agressivlik fenomeni va o'smirlar atvorining fiziologik o'zgarish jinsiy yetilishning boshlanishi va bu bilan bog'liq ravishda tanadagi barcha a'zolarining mukammal rivojlanishi va o'sishi, hujayra va organizm tuzilmalarining qaytadan shakllana boshlashi bayon etib o'tilgan. Yoshlarda o'smirlar davridagi deviant xulq-atvor, uning psixologik ko'rinishlari, shakllanishi, ushbu xulqqa moyil o'smirlar hamda deviant xulqni bartaraf etish usullari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Agressiya, fenomen. o'smirlar, deviant, xulq, psixologiya, turg'unlik.

INTRODUCTION

Shaxslararo munosabatlarda namoyon bo'luvchi xulq-atvor tiplaridan biri bu agressiyadir. Inson agressiyasini o'rganish serqirra mavzu bo'lib, ushbu fenomenning asl mohiyatini ochib berishga urinayotgan olimlarning diqqatini hozirgacha tortib keladi.

Oddiy kundalik hayotda agressiya – zo'ravonlik yoki raqibni yengish uchun jismoniy yoki verbal tarzda qo'llaniladigan vosita sifatida tavsiflanadi. Agressiya - kishilar o'rtasidagi turli kelishmovchiliklar oqibatida kelib chiqadigan har qanday xulq-atvor modellaridan biri bo'lib, u shunday atamaki, unga izoh berish qator qiyinchiliklarni tug'diradi, chunki bu atama ko'plab xatti-harakat shakllarini o'zida qamrab oladi. Bu boradagi asosiy yondashuvlardan biriga ko'ra, bunday fel-atvor o'z tabiatiga ko'ra ko'p jihatdan instinktivdir, ya'ni insonda genetic va konstitutsional jihatdan shunday harakatlar "programmalashtirilgan"ligi tufayli uning xulq-atvorida agressiya sodir bo'ladi.

Insonning agressiv xatti-harakatlarga moyilligini turlicha tushuntirishga qaratilgan nuqtai nazarlar ichida eng mashhuri U.Makdaugoll, Z.Freyd, G.Marrey va boshqa olimlarning "inson va hayvonlarda agressiyaning tug'ma instinkti mavjud bo'ladi" degan qarashlaridir. Bu

nazariya agressiya haqidagi dastlabki nazariya boʻlib, ammo u amaliyotda oʻz tasdigʻini topmadi.

Freyd o., zining dastlabki ishlarida quyidagi fikrni ilgari surgan: insonga xos barcha feʼl-atvor bevosita yoki bilvosita erodan, yaʼni hayot instinktidan yaraladi. Erosning quvvati (libidosi) xayotni mustahkamlashga, saqlab qolishga va ko.,paytirishga yo.,naltirilib, bu agressiyani ham keltirib chiqaradi. Birinchi jahon urushi zoʻravonliklari tajribasini boshdan kechirgan Freyd, agressiyaning kelib chiqishi va mohiyati haqida fikr yuritar ekan, u ikkinchi asosiy instinkt - tanatos – oʻlimga ishtiyoqning mavjudligini taxmin qildi. Bu instinktning quvvati buzgʻunchilikka va hayotni toʻxtatishga yoʻnaltirilgandir. Shunday qilib, tanatos agressiyani tashqariga chiqarishga va boshqalarga yoʻnaltirishga bevosita sabab boʻladi.

Freydning fikricha, tanatos energiyasi tashqariga yoʻnaltirilmasa, bu inson psixikasining buzilishiga olib keladi. Shuning uchun agressiyani tashqi namoyon boʻlishi tanatosning bunday buzgʻunchi kuchini susaytirishi va natijada yanada xavfli harakatlarning paydo boʻlish ehtimolini kamaytirishi mumkin.

K.Lorens agressiyaga nisbatan evolutsion yondashuv tarafdorlaridan biri boʻlgan va uning bu pozitsiyasi Freydning pozitsiyasi bilan oʻxshash ekanligini namoyon qilgan. K.Lorens taʼlimotiga koʻra, agressiya insonlarga va boshqa tirik jonzotlarga xos boʻlgan hayot uchun kurash tugʻma instinktidan kelib chiqqan. U bu instinkt uzoq evolutsiya davrida rivojlangan, deb taxmin qiladi va uning uchta muhim vazifasini ajratib koʻrsatadi. Birinchisi, hayot uchun kurash instinkti turli xil biologik tur vakillarini dunyo boʻylab katta geografik kengliklarga tarqatib yuborad, bu esa oziq-ovqat resurslarining maksimal sarflanishini taʼminlaydi. Ikkinchidan, agressiya biologik turning genetik fondi yaxshilanishini taʼminlaydi, chunki faqat eng kuchli va quvvatli individumlarga oʻzidan oʻzidan avlod qoldira oladi. Uchinchidan, kuchli tur va vakillarigina oʻzini himoya qila oladi va avlodining tirik qolishini taʼminlay oladi. Freyd instinktiv agressiv energiyaning qanday yigʻilishi va tarqab ketishi haqida aniq bir fikrga kelmay turgan bir pallada K.Lorens bu muammoning yechimini topib boʻlgan edi. Uning fikricha, yashash uchun kurash instinkti bilan bogʻlangan agressiv energiya organizmda uzluksiz ravishda aylanib yuradi.

Agressiv xulq-atvor xususidagi ikkinchi nuqtai-nazar L.Berkovichning ijtimoiy bilish nazariyasida keltiriladi. Unga koʻra, maqsadga yoʻnaltirilgan faoliyat davomida vujudga keladigan toʻsiq shaxsda agressiv xatti-harakatlarni hosil qiladi. D.Dollard tomonidan agressiyaning situativ nazariyasi taklif etilgan. Bu nazariyaga ko.,ra agressiya situativ jarayonning natijasi sifatida ko.,riladi. Situativ jarayon esa frustratsiyadir va frustratsiya har doim biror-bir shakldagi agressiyaga olib keladi.

Agressiyani chaqiruvchi omillar masalasida quyidagi uchta omil hal qiluvchi ahamiyatga ega:

1. Subʼekt erishmoqchi bo.,lgan maqsadning ahamiyatlilik darajasi;
2. Maqsadga erishish yo.,lidagi to.,siqning kuchi;
3. Frustratsiyalarning ketma-ket uchrash soni.

Agressiv xulq-atvorning kelib chiqish sabablari haqidagi eng zamonaviy nuqtai nazar bilishning kognitiv nazriyasi bilan bogʻliq holda ifodalanadi. Bu konsepsiyada agressiv harakatlar quyidagi jarayonlarning natijasi sifatida baholanadi: Subyektning oʻz agressiv xulq-atvorini ijobiy deb baholashi; frustratsiyaning mavjudligi; affekt yoki stress tipidagi emotsional qoʻzgʻalishning kuchliligi;

P.Kratchfeld va N.Livson agressiyaning bir-birini inkor etmaydigan ikki xil tavsifini ishlab chiqqanlar:

1. Xulq-atvorning tashqi alomatlariga asoslanadi: “Agressiya – kimgadir ziyon yetkazuvchi xulq-atvorning har qanday ko‘rinishidir”.
2. Odamning ichki niyatlari bilan bog‘liq: “Boshqa bir insonga ziyon yetkazishni maqsad qilib olingan har qanday xatti-harakat – agressiyadir”.

Agressiyaning yuqorida zikr etilgan tavsiflariga monand tushunchalarga tayangan ko‘plab psixologlar agressiyani jonli olamning yashash uchun kurash bilan bog‘liq uzviy xarakteristikasi deb ham hisoblaydilar. Jozef Bass tomonidan taklif etilgan mulohazalardan biriga asosan, agressiya – boshqalar uchun xavf tug‘diruvchi va ularga ziyon yetkazuvchi har qanday fel-atvor ko‘rinishidir.

Agressiya tushunchasini talqin qilishdagi kelishmovchiliklarga qaramasdan, ijtimoiy fanlar sohasidagi ko‘plab mutaxassislar uning ikkinchi nuqtai-nazarda bayon etilgan ma‘nosini maqullashga ko‘proq moyillik bildiradilar.

Agressiya atamasini ko‘p hollarda g‘azab kabi negativ(salbiy) his-tuyg‘ular bilan, haqorat qilish va ziyon yetkazish kabi motivlar bilan, hatto negativ sarasiga kiruvchi irqiy va etnik xurofot bilan ham assotsiatsiyalanadi. Bu omillar esa natijasi zarar yetkazish bo‘lgan xulq-atvorda albatta muhim rol o‘ynashiga qaramay, ular bunday harakatlar uchun asos bo‘la olmaydi. G‘azab boshqalarga tajovuz qilish uchun aslo zaruriy shart hisoblanmaydi, ayrim holatlarda agressiya o‘ta sovuqqonlik holatida ham yuzaga kelishi mumkin bo‘lgani kabi, o‘ta kuchli hayajon holatida ham yuzaga kelishi mumkin. Shuningdek, agressorlarning ular tajovuz qilayotgan shaxslardan nafratlanishi yoki ularni yoqtirishi ham umuman shart emas. Ayrim tadqiqotchilar o‘tkazgan tajribalarning xulosasiga ko‘ra, ko‘pchilik odamlar o‘zlari yoqtirgan insonlarga zulm o‘tqazishlari ma‘lum bo‘lgan.

Shunday qilib, hozirda “Agressiya - boshqa tirik jonzotga u buni istamagan vaziyatda haqorat yoki ziyon yetkazishni maqsad qilib qo‘ygan xulq-atvorning har qanday shaklidir”, degan tushuncha yoki ta‘rif ko‘pchilik tomonidan qabul qilingan

Inson agressiyasi ko‘rinishlarining o‘rganishda Dj.Bass o‘zgacha konsepsiya yaratdi. Uning fikricha agressiv harakatlarni uchta shkalaga asoslangan holda tasvirlash mumkin: jismoniy-verbal, aktiv-passiv va to‘g‘ri-egri. Ularning kombinatsiyalari sakkizta ehtimolga yaqin kategoriyalarni berib, ko‘plab agressiv harakatlarni ular asosida tushuntirish mumkin.

Deviant xulq-atvor - jamiyatda o‘rnatilgan axloq me‘yorlariga mos kelmaydigan insoniy faoliyat yoki xatti-harakat, ijtimoiy hodisa bo‘lib, yolg‘onchilik, dangasalik, o‘g‘irlik, ichkilikbozlik, giyohvandlik, o‘z joniga qasd qilish va boshqa ko‘plab shu kabi holatlar ushbu xulq-atvor xususiyatlari hisoblanadi.

Deviant xulq-atvor muammosini sosiologiya fani doirasida dastlab E.Dyurkgeym maxsus o‘rgangan bo‘lsa-da, jamiyatning eng qadimiy muammolaridan biri sifatida deviant holatlarga munosabatlar qadim davrlardan shakllanib kelgan. Qadimgi xalqlarning diniy-mifologik tasavvurlari, xususan Misr, Hindiston va Xitoy diniy qonun-qoidalaridagi axloqiy me‘yorlar bu sohadagi dastlabki qarashlar edi. Qadimgi Yunon va Rim faylasuflari ham o‘z asarlarida mazkur muammolarni tahlil kilib berganlar.

O‘rta asrlarda axloq me‘yorlari diniy qarashlar ta‘siri ostida rivojlandi va ulardan chekinish diniy nuqtai nazardan baholangan. Yevropada xristian dini barcha sohada hukmronlik qilgan

bo'lsa, Sharq dunyosida axloqiy-huquqiy me'yorlar va ular haqidagi ta'limotlar islom falsafasi ta'sirida rivojlandi.

Hozirgi davrda o'smirlarni tarbiyalashning o'ziga xos xususiyatlari, qonuniyatlari, imkoniyatlari xatti-harakat motivlarining ifodalanishi va vujudga kelishining murakkab mexanizmlari mavjud. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, o'smirlarni tarbiyalashda ularning xususiyatlarini to'la hisobga olgan holda ta'limiy-tarbiyaviy tadbirlarni qo'llash shaxslararo munosabatda anglashilmovchilikni vujudga keltirmaydi, sinf jamoasi o'rtasida iliq psixologik iqlimni yaratadi.

Turg'unlik yillaridagi so'z bilan ishning nomuvofiqligi, axloq tarbiyasidagi qo'pol xatolar o'smirlarning ruhiy dunyosiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Insonning ruhiy dunyosini tubdan qayta qurish, tarbiyani insonparvarlashtirish harakati boshlangan hozirgi kunda o'smirlar taqdiri masalasi ham g'oyat jiddiy tus oldi.

O'smirlar muammosiga e'tiborni kuchaytirish zarurligining asosiy sabablari quyidagilardan iborat:

- 1) fan va texnika rivojlanishi natijasida madaniyat, san'at va adabiyot, ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarning o'zgarayotgani;
- 2) ommaviy axborot ko'lamining kengayishi tufayli o'smirlar ongliligi darajasining ko'tarilgani;
- 3) o'g'il va qizlarning dunyo voqealaridan, tabiat va jamiyat fan va texnika rivojlanishi natijasida madaniyat, san'at va adabiyot, ijtimoiy-qonunlaridan, tarixdan yetarli darajada xabardorligi;
- 4) ularning jismoniy va aqliy kamoloti jadallashgani;
- 5) o'smirlar bilan ishlashda g'oyaviy-siyosiy va vatanparvarlik va millatlararo totuvlik tarbiyasiga alohida yondashish zarurligi;
- 6) oshkoralik, ijtimoiy adolat, demokratiya muammolarining ijtimoiy hayotga chuqur kirib borayotgani;
- 7) o'quvchilar uchun mustaqil bilim olish, ijodiy fikr yuritish, o'zini o'zi boshqarish, anglash, baholash va nazorat qilishga keng imkoniyat yaratilgani.

O'smirlik yoshida bolalikdan kattalik holatiga ko'chish jarayoni sodir bo'ladi. O'smirda psixik jarayonlar keskin o'zgarishi bilan aqliy faoliyatida ham burishlar seziladi. Shuning uchun shaxslararo munosabatda, talaba bilan o'qituvchining muloqotida, kattalar bilan o'smirlar muomalasida qat'iy o'zgarishlar vujudga keladi. Bu o'zgarishlar jarayonida qiyinchiliklar tug'iladi. Bular avvalo ta'lim jarayonida ro'y beradi: yangi axborot, ma'lumotlarni bayon qilish shakli, uslubi va usullari o'smirni qoniqtirmay qo'yadi. Odobli, dilkash o'smir kutilmaganda qaysar, intizomsiz, qo'pol, serzarda bo'lib qoladi. Kattalarning yo'l-yo'riqlarga, talablariga muloyimlik bilan javob qaytarib yurgan o'smir ularga tanqidiy munosabatda bo'ladi. Uning fikricha, kattalarning talablari, ko'rsatmalari mantiqan ixcham, dalillarga asoslangan, yetarli ob'ektiv va sub'ektiv omillarga ega bo'lishi kerak. O'smirda shaxsiy nuqtai nazarning vujudga kelishi sababli u kattalarning, o'qituvchining qayg'urishi, kuyishiga qaramay, o'zining fikrini o'tkazishga harakat qiladi. Uning o'z qadr-qimmatini haqidagi tasavvuri, narsa va hodisalarga munosabati oqilonalikdan uzoqlasha boshlaydi, u ayrim ma'lumotlarni tushuntirib berishni yoqtirmaydigan bo'lib qoladi. Serzardalik kundalik xatti-harakatning ajralmas qismiga aylanadi. O'smir xulqidagi bunday o'zgarishlar tajribasiz o'qituvchi yoki ota-onani qattiq

tashvishga soladi, asabiylashtiradi va ularning o'quvchiga munosabatini o'zgartiradi. Natijada kelishmovchiliklar, anglashilmovchiliklar kelib chiqadi.

Ayrim pedagoglar o'smirlik davri inqirozi to'g'risida kuyinib gapiradilar, ba'zi illatlarni tanqid qiladilar va ularning ijtimoiy-psixologik ildizini topishga intiladilar. Aslida esa o'smirlarga yondashishda metodologik kamchilikka yo'l qo'yadilar. Mazkur illatlarning oldini olish chora va tadbirlari tizimini ishlab chiqa olmaydilar. Bu masalaga to'g'ri yondashish ayrim ilmiy tadqiqotlarda asoslab berilgan va o'smirlik davri inqirozi haqida mulohaza yuritishdan ko'ra, kattalar bilan o'smirlar muomalasining inqirozi haqida gapirish to'g'riroq bo'ladi, deb xulosa chiqarilgan.

O'smirning psixik o'sishini xarakterga keltiruvchi kuch uning faoliyatini vujudga keltirgan yangi ehtiyojlar bilan ularni qondirish imkoniyatlar o'rtasidagi qaramaqarshiliklar tizimining namoyon bo'lishidir. Mana shu dialektik qarama-qarshiliklar ortib borayotgan jismoniy, aqliy hamda axloqiy imkoniyatlar bilan barqarorlashgan, stereotipga aylangan tashqi olamni aks ettirishning shakllari o'rtasida sodir bo'ladi. Vujudga kelgan ziddiyatlar va qarama-qarshiliklarni psixologik kamolotni ta'minlash, faoliyat turlarini murakkablashtirish orqali o'smir shaxsida yangi psixologik fazilatlarini tarkib toptirish bilan asta-sekin yo'qotish mumkin. Bu davr insonning kamoloti yuqoriroq bosqichiga ko'tarilishi bilan yakunlanadi. Kamol topish o'smirdan umumlashtirish, hukm va xulosa chiqarish, mavhumlashtirish, ob'ektlar o'rtasidagi ichki munosabatlarni o'rnatish, muhim qonun, qonuniyat, xossa, xususiyat, mexanizm va tushunchalarni anglash, ixtiyoriy diqqat, barqaror qiziqish, ongli motiv va mantiqiy eslab qolishni talab qiladi. Bularning barchasi fanlarga doir bilimlar tizimini vujudga keltiradi, amaliy ko'nikmalarni shakllantiradi, o'zini o'zi nazorat qilish, baholash, anglash singari xususiyatlarni tarkib toptiradi.

Hozirgi o'smirlar o'tmishdoshlariga nisbatan jismoniy, aqliy va siyosiy jihatdan birmuncha ustunlikka ega. Ularda jinsiy yetilish, ijtimoiylashuv jarayoni, psixik o'sish oldinroq namoyon bo'lmoqda. Shu sababli bizda o'g'il va qizlarni 10-11 dan 14-15 yoshigacha o'smirlik yoshida deb hisoblanadi.

Venalik psixolog Z.Freyd va uning shogirdlari o'smirlik davrini baholashda insonga azaldan berilgan qandaydir ilk mayl nishonasi sifatida vujudga keladigan o'z mavqeini belgilashga ongsiz intilishni eng muhim asos deb hisoblaydilar. Bu intilish go'yoki xudbinlik, boshqa kishilarni mensimaslik, paydo bo'lishga, atrof-muhit bilan kelisha olmaslikka, hatto nizolarga olib kelar, ongsizlik ehtiyojlari va mayllari shaxsning faolligini belgilar emish. Rus psixologlari Z. Freyd nazariyasini mutlaqo asossizligini ta'kidlab, o'smirda imkoniyat bilan talabchanlik o'rtasidagi kelishmovchilik, o'zini ko'rsatishga moyillik va o'z ichki dunyosiga qiziqishning namoyon bo'lishi bilan xarakterlanishini asoslab berdilar.

Ayrim psixologlar biogenetik o'sishning biologik omillariga, ya'ni jinsiy yetilishga alohida ahamiyat beradilar. Ularning fikricha, o'smirning psixik jihatdan inqirozga yetaklovchi, hayajonga soluvchi sub'ektiv ichki kechinmalari o'g'il va qizlarni tanholik psixologiyasiga tortar emish. O'smir uchun xarakterli norozilik, qo'pollik, qaysarlik, shafqatsizlik, tajanglik, ginaxonlik, tajovuzkorlik kabi illatlar jinsiy yetilishning mahsuli yangi tuyg'ular, mayllar, kechinmalar o'smir xattiharakatida hukmron bo'lib, uning xulq-atvorini boshqaradi deb tushuntirilmoqda. O'smirlikning psixologik qiyofasi, holati, imkoniyati yagona sof biologik omilga bog'liq emasligi hammaga ayondir.

Psixologlarning fikricha, o'smirlik davrining muayyan hech o'zgaras xususiyati va xarakteristikasi mavjud emas. O'smirlar o'rtasidagi o'ziga xos tipologik farqlarni ijtimoiy omillarning ta'siri bilan, ta'lim va tarbiya sharoitlarining xususiyatlari bilan izohlash mumkin.

Shu bilan birga, o'smirning jismoniy o'sishi xususiyatlari, jinsiy yetilishining iqlim va milliy-etnografik omillari ham bor.

O'smirlik insonning balog'atga etish davri bo'lib, o'ziga xos xususiyati bilan kamolotning boshqa pog'onalaridan keskin farqlanadi. O'smirda ro'y beradigan biologik o'zgarishlar natijasida uning psixik dunyosida tub burilish nuqtasi vujudga keladi. Balog'at davriga 11 (12)-15 yoshli qizlar va o'g'il bolalar kiradilar. Kamolotning mazkur pallasida jismoniy o'sish va jinsiy etilish amalga oshadi.

Bolaning bo'yi 11-12 yoshida 6-7 sm, hatto 10 sm gacha o'sishi mumkin. Biroq bu bosqichda qizlar o'g'il bolalarga qaraganda tezroq o'sadilar. O'smir 13-14 yoshga to'lganda har ikkala, jins o'rtasida bo'yni o'sishi qariyb baravarlashadi. O'n besh yoshga qadam qo'yganda esa o'g'il bolalar qizlarni ortda qoldirib ketadilar. Shundan keyin to umrning oxirigacha o'sishda o'g'il bolalar ustunlik qiladilar.

O'smirlik davrida bo'y bilan tana nomutanosib ravishda o'sadi, natijada bolalar oriq, nimjon va uzun bo'lyli bo'lib ko'rinadilar.

O'smirlarda yurakning hajmi va tiriklik sig'imi har yili 25 foiz kattalashib boradi. Bo'yni jadal o'sishi va tana og'irligining ortishi bilan qon hamda kislorodga ehtiyoj ham ortadi, bu ehtiyoj yurak xajmining kengayishi va funksional faoliyati ko'rsatkichlarining boyishi evaziga ta'minlanadi. Mazkur davrda tananing umumiy hajmidan 7-8 foizini qon tashkil qiladi, qon bosimi birmuncha oshadi, simob ustunining 110-115 mm darajasida bo'ladi. Yurak qisqarishining chastotasi bir qadar sekinlashadi, masalan, 11 yoshda 1 daqiqada 85-90 marta urgan bo'lsa, 14-15 yoshlarda 70 martagacha pasayadi.

O'smirlik davri organizmning jo'shqin o'sishi va rivojlanishi davridir. Bu davrda tananing intensiv o'sishi (mana shu ikki yil mobaynida qiz bolalar maksimum o'sish 13 yoshga, o'g'il bolalarda esa taxminan 15 yoshga to'g'ri keladi) yuzaga keladi. Bu davrda bolaning muskul apparati takomillashadi va skeletning suyaklanish protsessi davom etadi.

Deviant xulq-atvorni o'rganishda muammoli vaziyat muhim ahamiyat kasb etadi. Muammoli vaziyat shunday holatki, u subyektdan yechimini talab qiladi, uning yechimi ijtimoiy me'yorlarda ko'rsatilgan bo'lsa-da, u yoki bu sabablarga ko'ra, ushbu me'yorlarni qo'llash qiyinroq bo'ladi.

Eng katta muammoli vaziyat ziddiyatli holatlarda, ya'ni turli shaxslar yoki guruhlarining manfaatlari bir-birlariga to'qnash kelganda yuz beradi. Shu o'rinda ta'kidlab o'tish joizki, o'z joniga qasd qilishlarning 40%i oilaviy ziddiyatlar oqibatida sodir etiladi.

Ziddiyatli holatlarning yuzaga kelishiga ba'zan shaxs xususiyatlari sabab bo'lsa, ba'zan kichik ijtimoiy guruhlar, oila, mahalla, ishlab chiqarish brigadasi a'zolari, sinfdoshlar orasidagi salbiy munosabatlar sabab bo'ladi.

Jamiyatda shaxs shakllanishiga ta'sir etuvchi muammoning va uni hal qilish imkoniyatlarining murakkabligi darajasiga ko'ra muammoli holatning to'rtta asosiy ko'rinishi ko'zga tashlanadi: 1) hech qanaqa muammo yo'q holat, bunday holat hech qanaqa qaror qabul qilishni talab qilmaydi; 2) muammo bor, biroq qiyinroq yoki osonroq bo'lsa-da, uning yechimi

ham ijtimoiy me'yorlarda ko'rsatilgan holat; 3) mavjud muammoni subekt ijtimoiy me'yorlar doirasida hal qila olmaydigan holat; 4) muammoni hech qanaqasiga hal qilib bo'lmaydigan holat. Ushbu turlicha holatlar keng ko'lamda biridan ikkinchisiga o'tib turadi.

Muammoli holatning mazmuni subyektning individual maqsadlari bilan jamiyat manfaatlari orasidagi maqsadlar va unga eri-shishning mumkin bo'lgan vositalari orasidagi; faoliyatning kutilayotgan oqibatlar va uning qo'shimcha natijasi (ijobiy yoki salbiy) orasidagi, shuningdek, ijtimoiy me'yor talablari va shaxs xususiyatlari orasidagi ziddiyatlarning (ko'pincha o'ylab chiqarilgan) paydo bo'lishidan iboratdir.

Jamiyat a'zolari shaxsiy nuqtai nazarlarining shakllanishiga, ularda deviant xulq-atvoriga nisbatan ijtimoiy faol munosabatlarning tarkib topishiga tarbiyaviy jarayonlar uchun bevosita mutasaddi bo'lgan shaxslar, tashkilotlar rahbarlarining o'rni va roli kattadir. —Ba'zilarga mumkin, boshqalarga mumkin emas, —hozir yaxshi, ertaga yomon va shu kabi munosabat holatlarining ikkilamchi fe'l-atvor shaklida, ya'ni parallel standartlar yo'nalishida amal qilishiga izn berish juda xavfli. Shu boisdan, har qanday holatlarda ham mansabdor shaxslar, turli jamoat tashkilotlari va mehnat jamoalarining rahbarlari, pedagog va tarbiyachilar, qonunni himoya qiluvchi tashkilotlar vakillarining xulq-atvor me'yorlarini buzishi qat'iy qoralanadi.

Deviant xulq-atvor turlariga kiruvchi ichkilikbozlik, giyohvandlik, o'zo'zini o'ldirishlar bilan bog'liq ijtimoiy illatlarning har biri yuzaga kelishi va sosial oqibatlariga ko'ra mohiyatan farqli jihatlarga egadir.

O'zbekistonda demokratik davlat va fuqarolik jamiyati shakllantirilishi sharoitlarida mamlakat aholisining katta qismini tashkil etadigan yosh avlod ijtimoiy qayta o'zgarishlarning asosiy sosial subyekti hisoblanadi (30 yoshgacha bo'lganlar ulushi mamlakat umumiy aholisining 65 foizini, shu jumladan 18 yoshgacha bo'lganlar 50 foizini tashkil etadi). Mustaqillik yillarida yoshlar O'zbekistonda yuz berayotgan ijtimoiy jarayonlarda faol rol o'ynay boshladilar. Jamoatchilik fikri so'rovi jamiyatda yoshlarning yangi vaziyatga moslashishi jihatidan anchagina siljishlar yuz berayotganligini qayd etadi (yoshlarda Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg'usi, uning tarixi va an'analarini chuqurroq o'rganishga intilish, Vatanni himoya qilishga tayyorlik tuyg'usi yuqori darajada rivojlangan, ta'lim olish, bo'sh vaqtni mazmunli va maroqli o'tkazish ishtiyoqi, ayniqsa sport bilan shug'ullanish xohishi o'sgan). Biroq yoshlarning yangi bozor sharoitlariga moslashishi muammosi hamon dolzarb bo'lib turibdi.

Psixologik adabiyotlarda agressiv xulq-atvorning quyidagicha klassifikatsiyalanishi ko'rsatilgan:

1. Agressiyaning dardmandlik darajasidagi alomatlari (tutoqib ketish, jahl kelganda o'zini yo'qotib qo'yish);
2. Agressiyaning jismoniy og'zaki va boshqa, butun jamiyat uchun nomaqbul sanalgan qonun-qoidalar bilan bog'liq shakllari (odatda, ular ijtimoiylashuv xususiyatlari, aksil ijtimoiy xulq-atvor normalarining mustahkamlanishi bilan bog'liq bo'ladi);
3. Jamiyatda qabul qilingan ahloq qonun-qoidalarini yetarlicha o'zlashtirmaganligi yoki xatti-harakatlarini idora qilish imkonini beruvchi xususiy sifatlarni to'liq shakllanmaganligi (ta'lim-tarbiya ko'rmaganlik) bilan bog'liq agressiyaning turli ko'rinishlari;

4. Ayrim kuzatuvchilar tomonidan agressivlik haq-huquqlarini poymol qilish, birovga ziyon yetkazish gumonini paydo qiladigan, boshqa bir kuzatuvchilar tomonidan qatilik, faollik sifatida talqin qilinadigan barcha xatti-harakatlar

REFERENCES

1. Xalmatova, D. A. (2022). Formation of Ecological Consciousness and Culture among Young People and Developing Their Skills of Rational Approach to the Environment. EUROPEAN JOURNAL OF BUSINESS STARTUPS AND OPEN SOCIETY, 2(4), 4-7.
2. Khalmatova, D. A. (2022). How we can improve ecological culture among pupils of 9-11-grades. Oriental renaissance Innovative educational natural and social sciences, 2(2), 72-77.
3. Mirzarakhmonova, S. M. (2021). Advantages of a dual-based learning system in vocational education. Results of Modern Scientific Research and Development, 1(1), 222-225.
4. Мирзарахмонова, Ш. М. (2021). Таълимнинг инновацион кластерида дуал таълимни ташкил этиш асослари. Academic research in educational sciences, 2(4), 154-158.
5. Barakaevich, K. S. (2020). Improvement of Vocational Training of Pupils in Secondary Schools. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 24(1).
6. Qoraev, S. (2016). Specific features of interdisciplinary coherence and interoperability. "Education, Science and Innovation," 2 (2), 45-50.
7. Қораев, С. (2016). Фанлараро узвийлик ва узаро алоқани таъминлашнинг ўзига хос хусусиятлари. "Таълим, фан ва инновация", 2(2), 45- 50.
8. Elmurzaeva, N. K., & Qorayev, S. B. (2021). Pedagogical Requirements for the Organization of the Educational Process in Specialized State Educational Institutions. Psychology and Education Journal, 58(1), 1078-1084.
9. Қораев, С. Б. (2020). Профессional таълимда ўқув амалиётларини ташкил этишнинг ўзига хос хусусиятлари. Academic Research in Educational Sciences, 1 (3), 1281-1286.
10. Barakayevich, Q. S., & Baxtiyorovna, A. S. (2021). Xalqaro dastur talabalari asosida innovatsion ta'lim muhitini yaratish. Integration of science, education and practice. scientific-methodical journal, 1(02), 132-137.
11. Adbujalilova, S. A., & Koraev, S. B. (2020). Талабалар илмий дунёқарашини шакллантиришда педагогик технологияларнинг ўрни. Academic research in educational sciences, (4).
12. Караев, С. Б. (2018). Современные пути совершенствования учебнопроизводственных комплексов, специализированных на профессиональной подготовке учащихся. In Психология и педагогика на современном этапе (pp. 30-36).
13. Қораев, С. Б., & Жолдасов, И. С. (2021). Касб-ҳунар мактаблари фаолиятини амалий машғулотлар самарадорлигини ошириш орқали такомиллаштириш масалалари. Academic research in educational sciences, 2(2).
14. Tilakova, M., & Qoraev, S. (2020). Recommendations for students 'creative ability development. Academic Research in Educational Sciences, 1 (4), 184-189.
15. Adbujalilova, S. A., & Qorayev, S. B. (2020). The Role Of Pedagogical Technologies In The Formation Of Students' Scientific Outlook. European Journal of Molecular & Clinical Medicine, 7(03), 2020.

16. Тилакова, М., & Қораев, С. (2020). Ўқувчилар креативлик қобилиятларини ривожлантириш бўйича тавсиялар. *Academic Research in Educational Sciences*, 1 (4), 184-189.
17. Қораев, С. Б. (2016). Фанларни ўқитишда табақалаштирилган таълим технологиясини жорий этиш масалалари. *Таълим технологиялари*, 2, 45-50
18. Qorayev, S. B., & Janbayeva, M. S. (2021). Boshlang'ich sinf o'qish darslarida sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish. *academic research in educational sciences*, 2(4), 149-153.
19. Qorayev, S. B., & Allayorova, S. B. (2021). Boshlang'ich sinf o'quvchilarini pirls xalqaro baholash dasturi tizimiga tayyorlash jarayonini takomillashtirish masalalari. *Academic research in educational sciences*, 2(2), 443-448.
20. Қораев, С. Б. (2018). Умумий ўрта таълим муассасаларида ўқув-ишлаб чиқариш мажмуаларини ташкил этишнинг долзарблиги. *Таълим, фан ва инновация*, 4, 28-31.
21. Мухамедов, Г. И., & Қораев, С. Б. (2019). Ўқув-ишлаб чиқариш мажмуа машғулотларини олиб боришда педагогмухандисларнинг касбий функцияларини ошириш тамойиллари. *Муғаллим ҳам ўзликсиз билимлендириў*, 2, 71-74.
22. Қораев, С. Б. (2020). Профессional таълимда ўқувчиларни касб-хунарга тайёрлаш жараёнини такомиллаштириш йўллари. *Ўзлуксиз таълим*, 1, 88-92.
23. Қораев, С. Б. (2021). Профессional таълимда касбий амалий машғулотлар мазмуни ва уни такомиллаштириш йўллари. *Academic research in educational sciences*, 2(4), 1573-1581.